

## **"OLMALIQ KMK" AJ 2020 YIL I YARIM YILLIK YAKUNLARI BO'YICHA TAHLILY MA'LUMOTNOMASI**

“Olmaliq KMK” AJ boshqaruv raisi – Xursanov Abdulla Xalmuradovich.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini bajarish davomida “Olmaliq KMK” AJ jamoasi 2021 yil yanvar-iyun yakunlari bo‘yicha quyidagi tovar mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga erishdi:

- amaldagi narxlarda –116,4 %.

2020 yilning mos davriga solishtirma narxlarda tovar mahsuloti o‘shish sur‘ati 100,5% ni tashkil etdi.

Mis katodini ishlab chiqarish 101,0 %, shu jumladan 100,7 % o‘z xom ashyosidan, metalli rux 100,6%, shu jumladan 103,2 % o‘z xom ashyosidan, sulfat kislotasi 105,9 %, affinjli oltin 101,2% va affinjli kumush 100,2 %, portlandsement 92,5 % tashkil etdi.

2021 yil yanvar-iyun yakuni bo‘yicha 142,0 % miqdorida mahsulotlar eksportga sotildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9 yanvardagi PQ-4563 sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq 2021 yilga “Olmaliq KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatini oshirish va xom ashyoni qayta ishlash uchun 5039,6 mln. dollarlik investitsiya o‘zlashtirilishni mo‘ljallagan, shu jumladan o‘zlashtirish prognozi:

korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan – 1724,0 mln.doll.;

tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘laridan– 336,4 mln.doll.;

tijorat banklarining kreditlaridan – 62,7 mln. doll.;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy kreditlardan – 2916,5 mln. doll.

2021 yil yanvar-iyun yakuni bo‘yicha 168,4 mln. dollar (102,1 %) miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi, shu jumladan:

korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan – 135,6 mln. doll.;

tijorat banklarining kreditlaridan – 0,143 mln. doll.;

to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy kreditlar hisobidan – 32,7 mln. doll. o‘zlashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 martdagi 136-sonli “2020-2021 yillarda ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq “Olmaliq KMK” AJ 2021 yilda 161,4 mlrd. so‘mlik 87 ta loyihani amalga oshirishi ko‘zda tutilgan.

2021 yil yanvar-iyun yakuni bo'yicha 73 ta loyiha asosida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ko'rsatkichi 91,6 mlrd. so'mni yoki prognozga nisbatan 128,4 foizni tashkil etdi.

2021 yilga mo'ljallangan ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish bo'yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan bo'lib, unda ishlab chiqarish xarajatlarini 240,9 mlrd. so'mga yoki 1,8 foizga qisqartirish ko'zda tutilgan.

2021 yil yanvar-iyun yakuni bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlari kompleksini amalga oshirishdan kutilayotgan natija 401,8 mlrd. so'mni yoki 6,4 foizni, shu jumladan ishlab chiqarish tannarxi 226,5 mlrd. so'm yoki 3,7 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Kombinatda boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy ahvolni mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik to'lovlarini kamayishini ta'minlash tadbirlari amalga oshirilib kelinadi.

2021 yil 1 iyul holatiga kombinatning kutilayotgan debitorlik qarzlari 1648,1 mlrd. so'mni, shu jumladan muddati o'tgan qarzlari 114,1 mlrd. so'mni, kreditorlik qarzlari 2782,3 mlrd. so'mni tashkil etishi kutilmoqda.

Byudjetga yoki ish haqiga nisbatan qarzдорlik mavjud emas.

Ishchi-hodimlarni texnik tayyorlash dasturiga muvofiq kadrlarning malakasini oshirish uchun 2644 nafar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan tashqari holda 347 nafar, qayta tayyorlash va ikkinchi mutaxassislikni o'zlashtirish bo'yicha 1259 nafar, rahbar va mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha 824 nafar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan tashqari 84 nafar kishi o'qitildi.

"Olmaliq KMK" AJ O'zbekiston Respublikasidagi 10 ta oliy o'quv yurti va Rossiya Federatsiyasining MTTU "MISiS" universiteti va filiallari bilan oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni olib boradi.

Hozirgi kunda umumiy talabalar soni 432 tani tashkil etmoqda, bundan 90 ta talaba OTMlarning kunduzgi va 342 ta talaba sirtqi va kechki bo'limlarida ta'lim olmoqda. Shu jumladan OTMlar bo'yicha:

#### **O'zbekiston Respublikasida:**

- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialida (TDTU OF) – 279 ta;
- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida (TDTU) – 18 ta;
- Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida (TDIU) – 19 ta;
- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida (TATU) – 2 ta;
- Toshkent davlat transport universitetida – 8 ta;
- Toshkent kimyo texnologiya institutida (TKTI) – 1 ta;
- Toshkent arxitektura va qurilish institutida (TAQI) – 5 ta;

- Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetida (O‘zMU) – 6 ta;
- Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Jizzax filialida (O‘zMU JF) – 2 ta;
- MTTU “MISiS” Olmaliq filialida – 11

#### **Rossiya Federatsiyasida:**

- Milliy texnologik tadqiqot universiteti “MISiS”da – 81 ta

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida – 1 nafar talaba taxsil oladi.

Oliy o‘quv yurtlarida mutaxassis tayyorlash bo‘yicha xarajatlar iyun oyi bo‘yicha 1394,4 mln. so‘mni tashkil etdi.

Jami 272 nafar Ishchi kasblarga qayta tayyorlash bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari tinglovchilari uchun “Olmaliq KMK”AJ tarkibiy bo‘linmalariga ishga kirish tanlovi tashkil etildi, shundan 45 nafar tinglovchilar tanlovdan muvofaqiyatli o‘tishdi. Bugungi kunda qolgan 227 nafar tinglovchilardan 118 nafari Qurilish kompaniyasiga ishga qabul kilindi. Shu bilan birga qisqa muddatli o‘quv kurslarida o‘qish istagini bildirgan 610 nafar fuqarolar ro‘yxatidan yoshlar daftarida turgan 204 nafar yoshlar bilan 2 kurs yo‘nalishlari bo‘yicha qabul o‘tkazildi.

Hisobot davrida jami 744 nafar, jumladan kollej bitiruvchilari 418 nafari, oliy ta‘lim bitiruvchilari 147 nafar va ma‘lumotsiz 179 nafar kishi ish bilan ta‘minlandi.

Yuqori turuvchi tashkilotlarining topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarish, ijro intizomini nazorat qilish tizimini takomillashtirish maqsadida “Olmaliq KMK” AJ Ijro apparatida yuqori tashkilot topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish xizmati tashkil etilgan va ijro intizomi holatini tizimli va tanqidiy tahlil qilish tartibi belgilandi.

Yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va hukumat qarorlarining joylardagi ijrosini o‘rganish ishlari amalga oshirish mobaynida hisobot tizimini joriy etish va belgilangan muddatlarda hujjatlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Kombinatning ish rejasiga asosan analitik hisobotlar tayyorlanib bayonnomalar tuzib borilmoqda.

Qarorlari ijrosini tanqidiy tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2021 yil yanvar-iyun yakuni bo‘yicha jami 441 ta hujjat kirim qilingan, jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari 78 ta – (6 ta Farmon, 14 ta qaror, 3 ta farmoyish, 9 ta bayon, 46 ta topshiriq);

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlari 363 ta (42 ta qaror, 10 ta farmoyish, 50 ta bayon, Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari va maslahatchilari topshiriqlari – 164 ta, kotibiyat topshiriqlari – 97 ta).

Fuqarolar bilan ochiq muloqot olib borish, tushgan murojaatlarni sinchiklab ko‘rib chiqib, aniq qaror qabul qilish maqsadida “Olmalik KMK” AJ ijro apparatida yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlarni nazorat qilish va ishlash xizmati joriy qilingan. Bo‘limda har kunlik doimiy qabul tashkil etilgan.

Hisobot davriga 2490 ta murojat kelib tushgan. Shulardan 2029 tasiga tushuntirish berilgan, 169 tasi o‘rganish jarayonida, ko‘rib chiqilmoqda, 14 tasi rad etilgan, 135 tasi qanoatlantirilgan, 27 tasi tegishligi bo‘yicha boshqa tashkilotga yuborilgan.

Kelib tushgan arizalar mazmuni – moddiy yordam, ishga joylashish va tiklanish, davolanish, mehnat munozaralari, oylik maosh, xizmat uy-joylari bilan ta‘minlanish, texnik xizmatlar, yer kadastr, transport muammolari va hakoza murojatlardan iborat.